

## DAVLAT VA HUSUSIY SEKTORLARDA KORRUPSIYANING OLDINI OLİSH VA KOMPLAENS NAZORATI TİZİMİ

**Medetbaeva Aqsungul Sharapatdinovna**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*“Korrupsiyaga qarshi kurashish va umumi y koplayens nazorat”*

*yo’nalishi magistratura talabasi*

**Anotatsiya:** O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon o’tgan davr mobaynida rivojlangan davlatlar qatorida munosib o’rnini egallash borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.<sup>130</sup> Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, jamiyat rivojiga to’siq bo’ladigan asosiy illatlardan biri bo’lgan korrupsiyaning yana bir xavfli ko’rinishi Manfaatlar to’qnashuviga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar shular jumlasidandir. Bunga qo’shimcha davlat va hususiy sektorlarda korrupsiyaning oldini olish maqsadida ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, “Korrupsiya oqibatlari bilan kurashishdan ko’ra barvaqt oldini olishga o’tish kerak va korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy yo’li davlat organlari faoliyati va ish jarayonlarini shaffof qilishdir” deb bekorga ta’kidlamaganlar.<sup>131</sup>

**Kalit so’zlar:** korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, komplayens monitoring, davlat va hususiy sektorlardagi manfaatlar to’qnashuvi va korrupsiyaning oldini olish.

Yer yuzida davlat va jamiyat paydo bo’lganidan buyon odamzod poraxo’rlik, korrupsiya va manfaatlar to’qnashuvi taraqqiyot va farovonlikning kushandas, jamiyatda adolat, tenglik, sog’lom raqobat va halollik tamoyillari ustun bo’lishiga to’sqinlik qiladigan ijtimoiy illatlardan biri, deb baholab kelgan va unga qarshi kurashib yashagan. Davlat va jamiyat hayotining turli sohalaridagi o’zgarishlar natijasida davlat xizmatida korrupsiya o’zining turli yashirin va zamonaviy ko’rinishlari bilan yuzaga keladi. Bunda korrupsiogen xususiyatga ega bo’lgan huquqbazarliklar nafaqat moddiy pul va qiymatliklar asosida, balki turli harakatlarni amalga oshirish yoki oshirmslik natijasida, davlat va jamiyat hayotiga zarar yetkazishga olib keladi. Manfaaatlar to’qnashuvi zamirida ham aynan turli yakka shaxs va guruhlarning, taraflarning manfaatlar bilan davlat va jamiyat manfaatlar to’qnashuvi yuzaga keladi. Korrupsiyaning tarixiy o’zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo’lish uchun qabila sardorlariga sovg’alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O’sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning

<sup>130</sup> “Korrupsiyaga qarshi kurash to’g’risida”gi Qonuni 2017- yil 3 -yanvarda qabul qilingan.

<sup>131</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son bilan tasdiqlangan

“2022 — 2026- yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” gi Farmoni.

davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati hisoblanadi.

Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Korrupsiya tarixi bo'yicha bundan ham ko'proq ma'lumotlar bor hisoblanadi va biz hozirgi paytda davlatimizdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydonidagi ijobjiy obro'-e'tiborini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyalar belgilab berildi. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan ilk kunlardanoq korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator Qonun va qonun osti hujjatlar qabul qildi. Bunga qo'shimcha, Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"<sup>132</sup>gi Qonunning 4-bobi Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi "Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>132</sup>gi bo'limining 21-moddasiga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taklif qilamiz. Qonun loyihasida manfaatlar to'qnashuviga ta'rif berilgan va biz ushbu ta'rifga quyidagicha ta'rif berishni taklif qilamiz: Bu qonunda, asosan, davlat organlarida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha zudlik bilan chora-tadbirlar ko'riliши va bu borada davlat sektorida ishlar olib borilishi hamda mazkur islohotlar bilan bir qatorda bu harakatlar ham alohida ahamiyatga ega ekani belgilab qo'yilgan. sektalarda ko'proq tatbiq qilinsa, bu korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Qonunchilik palatasi tomonidan <sup>132</sup>2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"<sup>132</sup>gi Qonunning 4-bobi Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi "Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>132</sup>gi qonun qabul qilindi va uning 21-moddasida davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdar shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga yo'l qo'ymaslik; davlat organlarining mansabdar shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

<sup>132</sup> O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"<sup>132</sup>gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008> / (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption)

Jumladan aytib o'tadigan bo'lsak, Monitoring tizimi, korruptsiyaga oid jarayonlarni kuzatish, ma'lumotlarni to'plash va analiz qilish, hisobotlarni yaratish va ommaviy hisobkitoblarga o'tkazish imkonini beradi. Misol: Monitoring tizimi yordamida korruptsiyaga oid riskli sohalarni aniqlash, shaffoflikni ta'minlash, shikoyatlarni qabul qilish va ularni yechish jarayonlarini monitoring qilish va hisobot berish imkoniyatlari yaratiladi. Komplaens nazorati, korruptsiyani oldin olishda risklarni identifikatsiya qilish, korrupsiyaga oid protseduralarni belgilash, tartibga solish va uni oldini olishga qaratilgan strategiyalarni o'rnatish imkonini beradi. Misol: Komplaens nazorati tufayli, komplaens dasturlarini tashkil etish, ta'lif va bilimlarni amalga oshirish, shaffoflik va hisobot berishning jarayonlarni monitoring qilish va hisobot berish imkoniyatlari yaratiladi. Komplaens nazorati tufayli, ochiq va jamiyatning qatnashishini oshirish, qonunlarga riosa etish, etik qoidalar va huquqiy normativlarga amal qilish kabi asosiy prinsiplarni o'rganish, talim berish va o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Bu, davlat va huquqiy sohada ishlash uchun professional kompetentsiyani oshiradi, intizomli va muvaffaqiyatli rahbarlikni ta'minlaydi va korruptsiya va og'ir tashkilot muammolarini oldini olish uchun to'liq tayyorlanishni ta'minlaydi. Bunga qo'shimcha, Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va Manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida, Prezidentning<sup>133</sup> 2020-yil 29-iyuldagagi “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-6013-sonli Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Bundan tashqari, islohotlarning real natijalariga erishish uchun davlat va jamiyat hayotining har bir sohasida korruptsiyaga qarshi kurash samaradorligini izchil ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan korruptsiyaga qarshi kurashish va zamonaviy jinoyatlarning oldini olish sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish korrupsiyaning oqibatlari bilan bog'liq emas, balki sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan. milliy amaliyotga joriy etish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyat erkinligini ta'minlash, adolatli jamiyat barpo etish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa, ulardan biri korruptsiyaga qarshi kurashda qonun hujjatlariga riosa etilishini nazorat qilish bo'lsa, hozirda bu yo'naliш mamlakatimizda rivojlanayotgan yo'naliшlardan biri hisoblanadi va milliy qonunchiligimiz bilan jahon standartlariga mos me'yoriy namunalarni birgalikda qo'llash tizimni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ular orasida quyidagi maqsad va vazifalar hamda asosiy yo'naliшlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasini amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

<sup>133</sup> Lex.uz 2020-yil 29-iyuldagagi “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-6013-sonli Farmoni.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

### **RAHBARIY ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son bilan tasdiqlangan "2022 — 2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

2. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni 2017- yil 3 -yanvarda qabul qilingan.

3.

### **NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR**

2.1. Lex.uz 2020-yil 29-iyuldagи "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6013-sonli Farmoni.

2.2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008> / (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption)

### **ELEKTRON HUJJATLAR**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
3. [www.zakon.ru](http://www.zakon.ru)